

**TALABALARDA YOT G`OYALARGA NISBATAN AXBOROT MADANIYATINI  
RIIVOJLANTIRISHNING MEXANIZMLARI**

Xidirova Umida Erkin qizi

Navoiy innovatsiyalar universiteti

Ijtimoiy – gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

umidaxidirova85@gmail.com tel: (+99894) 4887801

**Annotatsiya.** Maqolada yoshlar ma’naviyati va ruhiyatiga ta’sir ko’rsatadigan salbiy omillar, tahdidlar ko’rinishlari, internet va axborotdan foydalanish madaniyati, shuningdek talaba-yoshlar o`rtasida yot g`yalarga nisbatan “immunitet” hosil qilish yo`llari ko`rsatib o`tilgan.

**Kalit so‘zlar:** Yoshlar, internet, tahdid, “ommaviy madaniyat”, ijtimoiy tarmoq, axborot, axborot madaniyati, ijtimoiy hayot, mediamadaniyat

**Abstract.** The article highlights the negative factors that affect the morale and spirit of young people, threats, the culture of using the Internet and information, as well as the levels of formation of information culture among students and young people.

**Key words:** Youth, internet, threat, "mass culture", social network, information, information culture, social life, media culture

Insoniyat sivilizatsiyasining axborotlashgan jamiyatga qadam qo‘yishi — insonlarni yangi hayot sharoitiga va yuqori avtomatlashtirilgan axborot muhitida professional faoliyatga o‘z vaqtida tayyorlash, bu muhitda mustaqil ravishda harakat qilishga, muhit imkoniyatlaridan samarali foydalanish va salbiy ta’sirlardan himoyalanishga o‘rgatish kabi jiddiy muammolarni yuzaga keltira boshladi. Axborotlashgan jamiyat shakllanishidagi muammolar, avvalambor bu jamiyatda inson o‘rni muammosi bugungi kunda xalqaro hamjamiyatning diqqat markazidagi mavzu bo‘lmoqda. Axborotlashgan jamiyatda insonlarni hayotga maxsus tayyorlash zarurati nufuzli xalqaro tashkilotlarning sammitlarida ko‘rib chiqilib, maxsus dasturlar qabul qilinmoqda. Bunga misol sifatida YUNESKO ning “Axborot hamma uchun” dasturi va IFLA ning “Axborot savodxonligi” bo‘limi faoliyatini keltirish mumkin. Keltirilgan muammolar mazmuniy jihatdan axborot madaniyati ta’rifida o‘z aksini topganligini ko‘rish qiyin emasShaxsning axborot tayyorgarligi tarkibiy tuzilishi quyidagicha: o‘zining axborot ehtiyojini ifodalash, axborot so‘rovlarini shakllantirish qobiliyati; axborot resurslari bilimi; kutubxonalar imkoniyatlarini bilish va ulardan foydalanish qobiliyati; axborot qidiruvini amalga oshirish qobiliyati; axborotlarni qayta ishlash bilim va ko‘nikmalari; axborotlarga tanqidiy yondashish, ularni tushunish va baholash hamda ulardan ijodiy foydalanish ko‘nikmalari; zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana bilish.

Axborot madaniyatini madaniyatning alohida jihatlariga nisbatan o‘ziga xosligini tushinib olish real voqelikni bilishga, axborotlashgan jamiyat haqidagi tasavvurlarning rivojlanishida axborotlashgan yondashuvning vujudga kelishi natijasidagina mumkin bo‘ldi. Axborotlashgan jamiyatda axborot resurslari qiymati jihatidan energiya, moliyaviy va

boshqa strategik resurslardan kam bo'lмаган holda, axborot hozirgi jamiyatda xodimning malakasini oshirish, optimal yechimlarni qabul qilish, yangi professional sohani egallash, raqobatdoshlar oldida strategik ustunlikka erishishi uchun samarali foydalaniladigan iqtisodiy kategoriya tovar sifatida baholanadi. Yangi axborot texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi ta'limda axborot madaniyati ahamiyatining ortishiga muhim omil bo'lishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Foydalanuvchi pedagog va foydalanuvchi o'quvchilarning axborot madaniyatini rivojlantirish bo'yicha faoliyatlarning dolzarbliги o'qitishning yangi modelini yaratishga yo'naltirilgan zamонавиу та'lim tizimidagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, axborot resurslariga asoslanadi. Shuning uchun ta'lim samaradorligining zaruriy sharti ta'lim hamjamiatining yuqori axborot madaniyati hisobланади. Ta'lim hamjamiatini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: axborot resurslari yaratuvchilar va tashkil etuvchilari, axborot resurslari iste'molchilari. Axborot resurslari yaratuvchilar va tashkil etuvchilarga asosan kutubxona xodimlari va professor-o'qituvchilarni kiritsak, axborot iste'molchilariga esa talabalar va o'z bilimini boyitib borishga intiluvchi pedagoglarni kiritish mumkin. Bu muhitda axborot resurslari yaratish va tashkil qilish to'g'ri yo'lga qo'yilmasa, yoki to'g'ri yo'lga qo'yilgan axborot resurslaridan samarali foydalanish yo'llarini bilmaslik axborot madaniyati komponentalarining bajarilmasligi bilan izohланади

Bugungi kunda jahonda real muhitda ham, virtual muhitda ham katta miqdordagi axborotlar oqimi paydo bo'lmoqda va shu bilan uni qidirish, toplash, qayta ishlash, analiz va sintez qilishning murakkablik darajasi ham ortmoqda. Shuning uchun bugungi kunda bunday axborot oqimida har xil axborot resurslaridan foydalanib, moslashish ko'nikmalarini egallash hayotiy zaruratdir. Bugungi talaba ma'lum axborot madaniyatini egallashi shart va buningsiz uzlusiz ta'lim va mustaqil ta'limni tasavvur qilib bo'lmaydi. Shundan kelib chiqqan holda, Davlat ta'lim standartlarini takomillashtirish borasida ishlar olib borilayotgan bir paytda "Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik" ta'lim yo'nalishi standartini yaratishda bu yo'nalish bitiruvchisiga kutubxonachi-pedagog kvalifikatsiyasi beradigan qilib o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

So'nggi yillarda jamiyatda axborotning asosiy roli haqida tushuncha paydo bo'ldi. Bizning davrimiz axborot asri deb ataladi. Hech qachon odamlar bir vaqtning o'zida juda ko'p turli xil ma'lumotlarga ega bo'lмаган.

Har kuni har birimiz, kattalar, ma'lumotlar oqimi bilan bombardimon qilinmoqda, ularni qayta ishlash bizdan ko'proq vaqt ni oladi va bu oqim doimiy ravishda oshib bormoqda. Bu chinakam cheksiz dengizda yo'l topish oson emas. Bizga, kattalarga oson emas, bolalar uchun bundan ham qiyinroq.

Talabalarda axborot bilan ishlash tizimini tashkil qilish muhim va zarurligi keltirilgan fikrlarda bayon qilindi. Uning samarador omillari talabalarning shaxsiy qobiliyatida kuzatish mumkinligi ta'kidlandi. Talabalarda axborot bilan ishlash kompetensiyalarini to'g'ri tashkil qilinishi uning takomillashishi va samaradorlikka erishishiga sabab bo'ladi.

Hozirgi kunda jamiyatni axborotlashtirish borasidagi salohiyati davlatning mediasavodxonlik darajasini belgilab beradi. Odamlarni ma'lumotlar bilan ta'minlash va axborotlashtirish shaxsning axborot madaniyatini shakllantirishdagi muhim qadam hisobланади.

Umuman olganda, media va axborot savodxonligi bu turli shakllardagi shaxs ijodiy faoliyati bo'lib, barcha zarur vositalardan foydalangan holatda axborot va media jarayonlaridan samarali foydalana olish, tahlil qilish, ma'lumotlarni tanqidiy baholay olish jarayoni hisoblanadi. Qolaversa, axborotni yig'ish va turli qarshiliklarsiz tarqata olish amaliyotlari majmui ham kiradi. Turli axboriy urushlarning global dunyosida ma'lumotlarning to'g'ri talqin qilinishi, axborotni tanlash to'g'ri baholay olish kompetensiyasi dolzARB bo'lib qolmoqda.

Harbiy maqsadda kashf qilingan internet axborot oqimining bir necha barobar tezlashishi, ijobiy ma'lumotlar bilan bir qatorda salbiy xarakterdagi axborotning ko'payishiga olib keldi. Bu o'z navbatida tarmoq orqali turli yolg'on ma'lumotlar, dezinformatsiya va feyk axborotlarning tarqalishiga zamin yaratib bermoqda. Shu o'rinda mazkur media axborot makonida sifatli kontentni tanlay bilih, yetarli darajadagi axborot immunitetini hosil qilish zarurati oshib bormoqda. Ingliz tilidagi turli lug'at va adabiyotlarda "Axborot savodxonligi" atamasi keng tushuntirilgani va bot-bot murojaat qilinganini uchratish mumkin. Zamonaviy jamiyatning aholi va har bir shaxsning savodxonligiga bo'lgan talablari ijtimoiy-madaniy va ilmiy texnikaviy o'zgarishlar, yangi texnologiyalar turlarining paydo bo'lishi bilan ortib bormoqda. Jamiyat rivojining sanoatgacha bo'lgan davrida savodxonlik og'zaki nutq, o'qish eng oddiy hisoblash operatsiyalari ko'nikmalariga ega bo'lish bilan bog'liq edi. Juda ko'p media sohasidagi tushunchalarga nisbatan eng keng tarqalgan nuqtayi nazar bu axborot savodxonligi (madaniyat) va media savodxonlik o'rtasidagi munosabat hisoblanadi.

Quyida berilgan shartlar mediasavodxonlikni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi:

- Huquqiy demokratik jamiyatining to'laqonli a'zosi sifatida amalsha oshirilayotgan islohotlar va strategiyalarning mazmunini tushunish;
- turli ommaviy axborot vositalari orqali uzatilayotgan axborotlarni tahlillay olish;
- internet tarmog'idagi onlayn saytlar, ijtimoiy tarmoqlar axborotini saralay olish;
- provakatsion axborotlar orqali amalga oshishi mumkin bo'lgan tashviqot manbalariga nisbatan to'g'ri qarar qabul qila olish;
- insonlar vizual obrazlar ta'sirida salbiy yoki ijobiy manbalarga nisbatan axboriy immunitetga egalik;
- turli OAV orqali taqdim qilingan axborotlarni kommunikatsion mohiyatini tahlil etish bilimlar majmuini nazarda tutadi.

Taqdim qilinayotgan turli axborot qayerdan kim tomonidan qanday maqsadlarda taqdim qilinmoqda; kimning maqsadlari va manfaatlarini o'zida aks ettirmoqda degan bahsli holatlarga javob topa olish muhim o'rIN tutadi.

Fanda "axborot urushi" degan atama ilk marotaba 1967-yilda Allen Dalles tomonidan qo'llanilgan. Media markazlari tomonidan amalga oshiriladigan axborot xurujlari xalqda turli guruhlarning shakllanishi, jamiyatdagi ichki salbiy axborot bosimlarining ortishiga olib keladi. Ushbu ijtimoiy haqiqat va nazariy kriteriyalarga asoslanib jamoatchilikda mediasavodxonlik masalalarini yaxshilash borasida kerakli profilaktik ma'lumotlar filtrini ishlab chiqish yoki media axborotlarga nisbatan immunitetni shakllantirishni nazarda tutadi.

Yuqorida nomi qayd etilgan axborot hujumlarining asosiy maqsadi raqobatchi davlatning axborot makonini egallash, mamlakatning xalqaro maydondag'i nufuzini shakllantirish, jamiyatni beqarorlashtirish, jamiyatdagi shaxs fenomenini obro'sizlantirishga qaratilgan xatti-harakatlar hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv jarayonida media axborotlarga nisbatan savodxonlik masalasi har tomonlama qabul qilish, turli rakursdan baholay olish tushunchasi ustuvorlik qiladi.<sup>60</sup>

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga tabrigi. "Xalq so'zi", 2018 yil 28-iyun
2. Media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik jihatlari. O'quv amaliy qo'llanma.-T.:Extremum-press, 2017 yil
- 3.X.D.Xolmirzayev, X.A.Axmedov v – Media savodxonlik va axborot madaniyati. O'quv uslubiy majmua.-TDPU, 2022 yil
4. Madina NURUTDINOVA, Yot g'oyalarga nisbatan mediasavodxonlikni oshirish – davr talabi

---

<sup>60</sup> Madina NURUTDINOVA, Yot g'oyalarga nisbatan mediasavodxonlikni oshirish – davr talabi